

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YULDASHEVA MAXMUDA ALIKULOVNA

**ADABIY TA’LIMNI EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL
ETISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Yuldasheva Maxmuda Alikulovna

Adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy-metodik
asoslari.....3

Yuldasheva Makhmuda Alikulovna

Theoretical and methodological foundations of organizing literary education
based on a heuristic approach 25

Юлдашева Махмуда Аликуловна

Теоретико-методологические основы организации литературного
образования на основе эвристического подхода 47

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works51

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMiy KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YULDASHEVA MAXMUDA ALIKULOVNA

**ADABIY TA‘LIMNI EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL
ETISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/Ped5280 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jabborova Matluba Rustamovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduvalitov Yergash Buranovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Tuxliyeva Dilfuza Boqijonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__» _____kuni tarqatildi.
(2026-yil «__» _____dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Q.Yo‘ldoshev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
ped.f.d., professor

Q.U.Pardayev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor

S.Ashirboyev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik imiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim oluvchilarning global tafakkurini rivojlantirish, zamonaviy o'quvchi shaxsini tarbiyalashda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan, differensial va integrativ yondashuvga asoslangan mexanizmlar joriy etilib, kelajak o'quvchilari faqat nazariy bilimlarni egallashlari emas, balki har qanday vaziyatda mos yo'lni tanlay bilish, muammoli vaziyatlarni innovatsion usullar bilan hal qilish malakasiga ega bo'lishlari uchun ergonomik muhit yaratishga jiddiy e'tibor beriladi. Evristik yondashuv esa bu moslashuvchanlikka emotsional ta'sir ko'rsatib, ta'lim oluvchilarda tashabbuskorlik, boshlang'ich idrokdan teran tafakkur sari intilish layoqatini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini oshirishga yo'naltirishi dolzarblik kasb etadi.

Dunyo ta'lim tizimida evristik yondashuvning yoshlarda izlanuvchanlik, kreativlik, o'quv tadqiqotchiligi kabi ko'nikmalarni shakllantirish, tez o'zgarib boruvchi sharoitlarga moslashish, intellektual potensialini oshirish, mustaqil fikrlovchi va faol shaxslar sifatida rivojlantirishga yordam berishi asoslangan. Ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni individual o'zlashtirishlariga motivatsiya berish, kognitiv qobiliyatlarini tarkib toptirish, ijodiy bilish ko'nikmalari, tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil izlanishlarga yo'naltiruvchi evristik o'qitish usullarini joriy etish masalalariga ustuvorlik berilmoqda.

Respublikamizda o'quvchilarni erkin fikr bildirish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, badiiy matn bilan ishlash jarayonida "o'z javobi"ni ayta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish – adabiyot o'qitishning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Adabiyot darslarini tashkil etishda o'rganish va kashf qilishga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'quv faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa ularning har tomonlama raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrleydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹, degan fikrlari yoshlarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish, badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, qiziquvchanlik, yangiliklarga intiluvchanlik sifatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-

¹Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIX, 2016. – B. 14.

tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz adabiy ta'lim tizimida evristik metodlardan foydalanish A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova² kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida o'qitishning hayot bilan aloqadorligi, ma'naviyat va estetik asoslarning ustuvorligi, mustaqil ishlarni uyushtirish, o'quvchilarning adabiy tahlil malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalari doirasida yoritilgan. Evristik yondashuv orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish, ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari N.S.Mamatov, J.Tursunov, Sh.Hamdammov, D.J.Gaipov, I.G'.Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xalloqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimova, R.Xurramov³ kabi pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan.

² Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 333 б.; Ўйлошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 300 б.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). Пед. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 150 б.

³ Mamatov N.S. Evristik mezonlar asosida informativ belgilar fazosini shakllantirish usullari va algoritmlari. Ped. fan. fals. dok. (PhD). ... diss. – Toshkent, 2010. – 114 b.; Tursunov J. O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta'lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 24 – 26; Hamdamov Sh. "Evristik suhbat" usuli / Ma'rifat. – Toshkent, 2020. – № 24. – B. 4; Gaipov D.J. Evristik metod yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faolligini ta'minlash mexanizmlari. Ped. fan. fals. do. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2021. – 40 b.; Abdullayeva I.G'. Innovatsiya fenomeni va uning evristik asoslari // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2021. – № 9. – B. 40 – 44; Razikova F.K. Evristik ta'lim texnologiyasiga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharti // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022, – B. 8; Xalloqova O.O. Evristik faoliyat texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal. 2022, – B. 7; Turaqulova A. Evristik ta'lim texnologiyalari / Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022. – B. 17; Shokarimova K.A. Применение эвристического метода на уроках литературы // Academic Research in Educational Sciences. – Chirchik, 2022. – B. 73; Хуррамов Р. Оғзаки машқлар ёрдамида бошланғич синф ўқувчилари эвристик фикрлашини

MDH davlatlari olimlari V.I.Andreyev, S.S.Bakulevskaya, V.N.Vasilkov, V.N.Voronin, A.A.Derkach, V.V.Ilin, P.F.Kapterev, A.D.Korol, I.M.Rozet, Y.K.Kulyutkin, N.M.Pleskatsevich, A.V.Xutorskoy, Y.F.Trofimov⁴larning izlanishlarida evristik metod, evristik faoliyat turlari va evristik ta'limning ustuvor jihatlari o'z ifodasini topgan. Evristik yondashuvni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullari, o'quvchilarda evristik tafakkurni shakllantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari, evristik ta'limni tashkil etish muammolari M.K.Kogut, Y.D.Ulezko, E.A.Petrosyan, R.N.Naurizbayeva⁵lar tomonidan monografik yo'sinda tadqiq qilingan. M.A.Danilov, A.M.Matyushkin, I.S.Averina, G.D.Chistyakova, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.E.Simanovski, A.N.Leontyev, S.I.Shoxor-Trotskiy, N.Sokolov⁶ kabi olimlar tomonidan o'quvchilarning ijodiy faoliyati, qiziqishi, istak va ehtiyojlarini qo'shimcha ta'lim, to'g'arak mashg'ulotlari va maktabdan tashqari ishlar jarayonida rivojlantirish yo'llari asoslangan.

Jahon ta'lim tizimida evristik yondashuv vositasida o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarni shakllantirishning pedagogik-

ривожлантиришнинг методик асослари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. – № 9. – В. 153.

⁴ Андреев В. И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития. – Казань: Центр инновационных технологий, 2015. – 288 с.; Бакулевская С.С. Становление интеллектуально-творческой деятельности старшеклассника в процессе решения эвристических задач. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Волгоград, 2001. – 162 с.; Васильков В.Н. Эвристический диалог в структуре вузовского обучения. – Воронеж: ВГУ, 2002. – 84 с.; Воронин В.Н. Интеграция эвристических и технологических подходов проектирования дидактических комплексов в вузе. – Тольятти: Мир, 2003. – 274 с.; Деркач А.А. Педагогическая эвристика: Искусство овладения иностранным языком. – М.: Педагогика, 1991. – 224 с.; Ильин В. Теория познания. Эвристика. Креатология. – М.: Проспект, 2018. – 173 с.; Каптерев П.Ф. Эвристическая форма обучения в народной школе // Антология педагогической мысли России второй половины XIX – начала XX в. – М.: Педагогика, 1990. – С. 218 – 221; Король А.Д. Метод эвристического диалога в технологии творческой самореализации учащихся / Ученик в обновляющейся школе. Сборник научных трудов / под ред. Ю.И.Дика, А.В.Хуторского. – М.: ИОСО РАО, 2002. – С. 173 – 181.; Розет И.М. Что такое Эвристика? – Минск: Народная асвета, 1969. – 119 с., Кulyutkin Ю.К. Эвристические методы в структуре решений. – М.: Педагогика, 1970. – 232 с.; Плескачевич Н.М. Эвристическая беседа и ее роль в процессе обучения (На материале предметов гуманитарного цикла в средних классах школы). Дисс. ... канд. пед. наук: Минский гос. пед. ин-т им. А.М.Горького. – Минск, 1969. – 220 с.; Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: МГУ, 2003. – 416 с.; Трофимов Е.Ф. Эвристика: учебное пособие. – Ярославль: Мубинт, 2007. – 289 с.;

⁵ Когут М.Т. Историческая эвристика: практикум/ – Омск: Издательство ОМГТУ, 2011. – 55 с.; Улезко Ю.Д. Методические условия применения эвристических методов обучения на уроках биологии. – Екатеринбург, 2018. – 196 с.; Петросян Э.А. Реализация творческой эвристической деятельности школьников в процессе обучения математике. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2005. – 163 с.; Науризбаева Р.Н. Педагогическая система эвристического обучения учащихся художественно-творческой деятельности через народное искусство. – Казань, 2009. – 142 с.

⁶ Данилов М.А. Воспитание у школьников самостоятельности и творческой активности в процессе обучения // Советская педагогика. 1961. – № 8. – С. 32 – 42; Матюшкин А. М. Основные направления исследования мышления и творчества. В кн.: Категории, принципы и методы психологии. – М.: Наука, 1983. – С. 314 – 316; Матюшкин А. М. Аверина И. С., Чистякова Г. Д. Развитие творческой активности школьников / Под ред. Матюшкина А.М., НИИ общ. и пед. психологии АПН СССР. – М.: Педагогика, 1991. – 155 с.; Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – СПб.: СОЮЗ, 1997. – 96 с.; Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: изд-во Академии Наук СССР, 1958. – 145 с., Симановский А. Э. Развитие творческого мышления детей. – Ярославль. Гринго, 1996. – 192 с.; Леонтьев А.Н. Развитие памяти: Экспериментальное исследование высших психологических функций. – М.: Государственное учебно-педагогическое издательство, 1931. – 278 с.; Шохор-Троцкий С. И. Чему и как учит на уроках арифметики? – М.: СПб, 1899. – 280 с.; Соколов В. Н. Педагогическая эвристика: введение в теорию и методику эвристической деятельности: учебное пособие / Соколов. – М.: Аспект Пресс, 1995. – 255 с.

psixologik xususiyatlari xorijlik olimlardan D.Poya, A.Puankare, B.Bolzano, R.Dekart, K.Dunker, A.Giddens, R.Sears, L.Jantine⁷larning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Yuqoridagi tahlillar adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etish muammosi monografik yo‘sinda tadqiq etilmaganini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan ijod maktablarida adabiyot o‘qitishni evristik yondashuv asosida tashkil etish zarurati mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijod maktablarida adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijod maktablarida adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini aniqlashtirish;

o‘quvchilarda evristik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini belgilash;

adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etishning tavsiyaviy usullarini ishlab chiqish;

adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijod maktablarida adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi, Guliston shahar Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi, Xiva shahar Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi ijod maktablarining 594 nafar 7–11-sinf o‘quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini ijod maktablaridagi adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda suhbat, so‘rovnoma, tasniflash, tavsiflash, umumlashtirish, kuzatish, pedagogik tajriba o‘tkazish, qiyoslash, matematik-statistik tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijod maktablarida adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy-metodik asoslari shaxsga yo‘naltirilgan madaniy, pragmatik,

⁷Пойа Д. Как решать задачу. – М.: Учпедгиз, 1959. – 208 с.; Пуанкаре А. Наука и метод. – СПб.: Н.П.Карбасникова, 1910. – 240 с., Больцано Б. Учение о науке. – СПб: Наука, 2003. – 518 с.; Декарт Р. Рассуждение о методе, чтобы хорошо направлять свой разум и отыскивать истину в науках. – М.: Академии Наук СССР, 1953. – 273 с.; Дункер К. Качественное (экспериментальное и теоретическое) исследование продуктивного мышления // Психология мышления. – М., 1965. – С. 21 – 85; Giddens A. Politics, Sociology and Social Theory. – USA, 1995. – 312 p.; Sears R. Patterns of child rearing. – Stanford, 1957. – 549 p.; Jantine L. Spilt. A Study into the effects of a blended professional development program on pre-primary teachers' Language Stimulatin COmpetenceS (LASCOS) (01/10/2022 - 30/09/2026) - Co-promotor.

kognitiv va ijodiy faoliyat turlarini o'quvchilarning o'quv-biluv ko'nikmalarini rivojlantirishga doir jarayonni texnologiyalashtirish orqali aniqlashtirilgan;

o'quvchilarda evristik tafakkurni rivojlantirishning psixologik (kreativlik, motivatsiya, qiziqish, empatiya, moslashuvchanlik), pedagogik (markazda o'quvchi faol, muhokama, o'quv materiallarining rang-barangligi, baholash) va metodik (o'quv maqsadlarining aniqligi, o'lchanishi, tanlovi, resurslar, ijodiy topshiriqlar) imkoniyatlari adabiy ta'limning tashkiliy-didaktik ta'minoti bilan o'zaro muvofiqlashtirish asosida belgilangan;

o'quvchilarning ijodiy individualligi, yaratuvchanligini rivojlantirishda badiiy asar mohiyatini anglashga hissiy-obrazli ta'sir ko'rsatuvchi sinergetik, ilmiy va ijodiy-bilish tamoyillarini matn ustida ishlashga oid tadqiq etish, ta'riflash, bashorat qilish, tushuntirish kabi strategik maqsadlar aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish metodikasi o'quvchilarning badiiy asarlarni ijodiy idrok etish bilan bog'liq evristik kuzatish, individual loyihalar, virtual tashrif, ijodiy tasavvur qilish, ijodiy fantaziya, tarixiy fakt va adabiy asar talqinlarini qiyoslash metodlari, skits (kundalik epizodlarni aks ettiruvchi qisqa dramatik yoki nasriy asar)lar yozish, sochma bandlar, raqamli texnologiyalar (Interaktiv devor (Padlet), "Hikoyalar taxtasi" (Story board), Ovoz yozish platformasi (Vocaroo)ni optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan hammualliflikda ijod maktablarining 8–9-sinflari uchun "Adabiyot" darsliklari yaratilgan;

adabiy ta'limni evristik yondashuv asosida tashkil etishga doir dars ishlanmalari va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'quvchilarning o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishiga doir evristik savol-topshiriqlar tizimlashtirilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta'limda "Adabiyot o'qitish metodikasi", "Maktab ta'limida zamonaviy adabiyot" fanlari o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mazkur tadqiqot ishida qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar nazariy-metodik jihatdan asoslangani, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik tahlil orqali aniqlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, evristik yondashuvning adabiy ta'lim jarayonidagi o'rnini metodik jihatdan asoslashga doir nazariy va metodik qarashlar umumlashtirilgani, tavsiyalar ishlab chiqilgani va amaliy asoslangani bilan muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, ijod maktablari o'quvchilarining ijodkorligi, o'quv tadqiqotchiligini rivojlantirishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ijod maktablari o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish bo'yicha samarali usullar ishlab chiqilgan va

qo'llashga oid metodik tavsiyalar berilgani, tadqiqotda ilgari surilgan metodik g'oyalar, tavsiyalardan umumta'lim, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari uchun "Adabiyot" darsliklarini yaratishda, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda, adabiyot o'qitish metodikasiga oid qo'llanmalar tayyorlashda hamda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda evristik usullardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ijod maktablarida adabiy ta'limni evristik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy-metodik asoslari shaxsga yo'naltirilgan madaniy, pragmatik, kognitiv va ijodiy faoliyat turlari o'quvchilarning o'quv-biluv ko'nikmalarini rivojlantirishga doir jarayonni texnologiyalashtirish bo'yicha takliflardan ijod maktablarining 8-sinf "Adabiyot" darsligini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining 2024-yil 27-maydagi 01-06-856-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim jarayonida evristik yondashuvga asoslangan metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va kashf etish jarayonini shakllantirish imkoniyatlari ortgan;

o'quvchilarda evristik tafakkurni rivojlantirishning psixologik, pedagogik va metodik imkoniyatlari adabiy ta'limning tashkiliy-didaktik ta'minoti bilan o'zaro muvofiqlashtirish haqidagi ilmiy xulosalardan ijod maktablarining 9-sinf "Adabiyot" darsligini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining 2024-yil 27-maydagi 01-06-856-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ijod maktablari o'quvchilarining badiiy matn bilan ishlash orqali badiiy-estetik tafakkuri, kommunikativ va izlanuvchanlik kompetensiyalari shakllanishiga doir komfort muhit yaratilgan;

o'quvchilarning ijodiy individualligi, yaratuvchanligini rivojlantirishda badiiy asar mohiyatini anglashga hissiy-obrazli ta'sir ko'rsatuvchi sinergetik, ilmiy va ijodiy-bilish tamoyillarini matn ustida ishlashga oid tadqiq etish, ta'riflash, bashorat qilish, tushuntirish kabi strategik maqsadlar aloqadorligini ta'minlashga oid ilmiy xulosalar va takliflardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-martdagi 01/4-921-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy adabiy ta'lim jarayonini evristik yondashuv asosida loyihalash va texnologiyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga erishilgan;

adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish metodikasi o'quvchilarning badiiy asarlarni ijodiy idrok etish bilan bog'liq evristik kuzatish, ijodiy fantaziya, individual loyihalar, virtual tashrif, ijodiy tasavvur qilish, tarixiy fakt va adabiy asar talqinlarini qiyoslash metodlari, skits (kundalik epizodlarni aks

ettiruvchi qisqa dramatik yoki nasriy asar)lar yozish, sochma bandlar, raqamli texnologiyalar, grafikli test kabi vositalarni optimallashtirishga doir xulosa va takliflardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga bajarilgan IL-402104474 raqamli “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-martdagi 01/4-922-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiy ta’limning pedagogik, metodik va didaktik ta’minoti ijodiy izlanishga yo’naltirilgan evristik faoliyat turlarini tizimli qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

adabiyotni fan sifatida o‘qitishga doir yondashuvlar: fanlararo aloqadorlik, mavzulararo integratsiya, mustaqil ta’limni tashkil etish, evristik yondashuv asosidagi ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning ijodkorligini oshirish; badiiy asar matni ustida ishlash yo‘llari, badiiy asarlarni san’atning boshqa turlariga qiyoslab tahlil qilish, yozuvchi ijodini shaxsiyatiga bog‘lab o‘rgatishda evristik metod va yondashuvlarni qo‘llashga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarix maydoni” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda ma’lumot sifatida foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 14-iyuldagi 01-33/526-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan ilmiy-ommabop materiallarning ilmiy saviyasi va mazmun jihatidan mukammallashuvi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 181 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adabiy ta’limni tashkil etishda evristik yondashuvning o‘rni**” deb nomlangan bo‘lib, unda evristik yondashuv o‘quvchi faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida tadqiq etilgan; adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishga doir psixologik, pedagogik va metodik talablar

o‘rganilgan; ijod maktablarida adabiyot o‘qitishni evristik yondashuv orqali tashkil etishning mavjud holati tahlilga tortilgan. Bobning “*Evristik yondashuv – o‘quvchi faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida*” nomli paragrafida Sharq mutafakkirlarining izlanish, yaratuvchanlik bilan bog‘liq qarashlariga to‘xtalangan. Izlanishga yo‘naltiruvchi usullarning ta‘lim oluvchilar ma‘naviy kamolotidagi o‘rni bayon etilgan. Jumladan, Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida intellektual salohiyat, izlanish va yaratuvchanlik haqida muayyan fikrlar bildirilgan. Jadidlarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning asarlarida ilmiy izlanish va ijodiy jarayonlar insonning shaxsiy kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi qarashlari yoritilgan.

Q. Yo‘ldoshev izlanishga oid quyidagi fikrlarni keltiradi: “Inson xotirasining o‘rnini bosadigan texnik vositalar yaratildi va odam istagan vaqtda o‘zini qiynab o‘tirmay, juda ko‘p axborotlarni topib foydalanishi mumkin bo‘lib qoldi. Endi fan rivojidagi o‘zgarishlarga moslasha biladigan, mavjud texnik imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, tinimsiz izlanishga ichki ehtiyoji borligidan taraqqiyotni tezlatadigan shaxslarni shakllantirish muhim sanaladigan bo‘ldi”⁸. Hozirgi kunda axborotga ega bo‘lish, internetdan foydalanishni bilish ustunlik emas, balki axborotni tahlil qilish, saralash, amaliyotda qo‘llash muhim jarayondir. O‘zbek metodist olimlari ta‘lim jarayonida intellektual salohiyat, izlanish va yaratuvchanlikni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ta‘kidlab, bu borada yangi usullarni ishlab chiqmoqdalar.

Jahon ta‘lim tizimida evristik yondashuv turli shakl va darajalarda qo‘llaniladi. L.R.Xrapalning e‘tiroficha, “Kashf etishga yo‘naltirish ma‘nosidagi evristika so‘zi ta‘limda o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda kashf etishlariga, muammolarni mustaqil hal qilishlariga va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi”⁹. Ma‘lumotlar tahlili asosida aniqlanishicha, Evristika o‘quvchiga javobni aytmasdan, uni savollar orqali fikrlashga yetaklash san‘atidir. Bu san‘at har bir o‘qituvchining metodik mahorati bilan yanada jonlanadi.

Adabiyot darslarida evristik yondashuvdan foydalanish adabiy asarlarni teran anglash va o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Uning maqsadi nafaqat asar syujeti va ramziyligini tushunish, balki o‘quvchilarda empatiya, ijodkorlik va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hisoblanadi.

Evristik yondashuv – o‘rganish jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning intellektual fikri va maqsadini aniqlashga yordam berish, ta‘lim olishda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish hamda o‘quv-tarbiya jarayonida yo‘naltiruvchi savollar orqali yangilikni kashf etib borishga asoslangan o‘qitish tizimi. Bu jarayon natijasida o‘quvchilarda sinchkovlik, topqirlik, izlanuvchanlik, maqsadlar izchilligini ilg‘ay olish kabi ijobiy ko‘nikmalar shakllanishi bilan birga

⁸ Yo‘ldoshev Q va Yo‘ldosheva M. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2023. – B. 60.

⁹ Храпаль Л. Р., Залялиева Д. Р. Перспективы внедрения инновационных методик креативного мышления в частных школах России // Современная наука, 2024. – № 1. – С. 57.

muammoli vaziyatlarda mustaqil izlanish, qo'yilgan vazifalarga yechim topish layoqati ham shakllanadi.

Evristik yondashuvga asoslangan usullar o'quv topshiriqlariga qiziqarli yechim topishga yordamlashishi qatori o'quvchilarni asarni chuqur idrok etish va sharhlashga ilhomlantiradi. Bunga simvolizm, metafora, sujet burilishlari, noaniq tasvirlar, allegoriya va boshqa badiiy tasvir vositalari yordamida erishish mumkin. Evristik yondashuvli usullardan foydalanish o'quvchilarga asar tahlilida faol ishtirok etish va matn ortidagi ma'nolarni izlash imkonini beradi. Bu esa asarlarni mustaqil tahlil qilish va tushunish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va adabiy matn ustida ishlashga yo'naltiradi. Shuningdek, evristik usul o'zida ijodkorlikni mujassamlashtiradi va birlashtiradi. Buning sababi shundaki, mazkur jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim yoki ma'lumot bermaydi, balki ularni mustaqil izlanishlari, ijod qilishlari uchun tayyorlaydi.

Bobning ikkinchi paragrafi "*Adabiy ta'limni evristik yondashuv asosida tashkil etishga doir psixologik, pedagogik va metodik talablar*" deb nomlangan bo'lib, unda evristik yondashuvni qo'llashga doir psixologik, pedagogik va metodik talablar tasniflangan.

Bizgacha olib borilgan ishlarda evristik metodning psixologik, pedagogik va metodik tomonlari alohida-alohida ish sifatida ochib berilgan. Masalan, pedagogik-psixologik xususiyatlari D.Poya, B.Bolzano, K.Dunker¹⁰ kabi xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida, A.Puankare, Kapterev, Xutorskoy va M.T.Kogut¹¹ da pedagogik asoslari, metodik asoslari esa R.Dekart, Xutorskoy, Yu.D.Ulezko¹² larning tadqiqotlarida ochib berilgan. Yuqorida keltirilgan ishlar, asosan, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha hamda boshlang'ich ta'limda tadqiq etilgan. Biz o'z ishimizda ana shu barcha xususiyatlarni umumlashtirib, adabiy ta'limga moslashtirgan holda tasniflab, taqdim etdik.

Adabiy ta'limda evristik yondashuvga doir psixologik talablar ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga nisbatan qo'yilishi asoslangan. O'qituvchiga qo'yiladigan psixologik talablar: rahbarlik va qo'llab-quvvatlash, empatiya va tushunish, sabr-toqat va moslashuvchanlik, munozara va bahsni boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish.

O'quvchiga qo'yiladigan talablar: mustaqillik va faollik, empatiya, tanqidiy fikrlash, kreativlik va tasavvur, muloqot qilish ko'nikmalari, o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va qiziqish.

O'qituvchiga qo'yiladigan pedagogik talablar tasnifi quyidagilar: darsning

¹⁰ Пойа Д. Как решать задачу? – М.: Учпедгиз, 1959. – 208 с.; Больцано Б. Учение о науке. – СПб: Наука, 2003. – 518 с.; Дункер К. Качественное (экспериментальное и теоретическое) исследование продуктивного мышления // Психология мышления. – М., 1965. – 156 с.

¹¹ Пуанкаре А. Наука и метод. – СПб.: Н.П.Карбасникова, 1910. – 240 с.; Каптерев П.Ф. Эвристическая форма обучения в народной школе // Антология педагогической мысли России второй половины XIX – начала XX в. – М.: Педагогика, 1990. – 279 с.; Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: МГУ, 2003. – 416 с.; Когут М.Т. Историческая эвристика: практикум/ – Омск: Издательство ОмГТУ, 2011. – 55 с.

¹² Декарт Р. Рассуждение о методе, чтобы хорошо направлять свой разум и отыскивать истину в науках. – М.: Академии Наук СССР, 1953. – 273 с.; Хуторской А.В. Эвристический тип образования: результаты научно-практического исследования // Педагогика, 1999. – № 7. – 172 с.; Улезко Ю.Д. Методические условия применения эвристических методов обучения на уроках биологии. – Екатеринбург, 2018. – 196 с.

maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, motivatsiya va qiziqishni oshirish, o'quvchi markazda yondashuvi, savol berish san'ati, muhokama va bahslarni boshqarish, o'quv materiallarining rang-barangligiga e'tibor qaratish, baholashdagi o'ziga xoslik, o'qituvchining o'z ustida ishlashi.


Evristik yondashuvdan foydalanishga qo'yiladigan metodik talablar tasnifi: o'quv maqsadlarining aniqligi va o'lchanishi, o'quv materiallarining tanlovi va tayyorligi, evristik usullar va texnologiyalarning tanlovi, dars jarayonini tashkil qilish, o'quv jarayonini baholash, resurslar bilan ta'minlash.

Adabiy ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va texnologik yondashuv o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin yaratadi.

"Ijod maktablarida adabiyot o'qitishni evristik yondashuv orqali tashkil etishning mavjud holati" deb nomlangan uchinchi paragrafda ijod maktablaridagi mavjud holat, adabiyotdan o'quv dasturlari va darsliklar tahlilga tortiladi. Dunyo ta'lim tizimi bilan mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ijod maktablari tajribalari qiyoslanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar soni ortib bormoqda. Ushbu maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan yondashuvi, intellektual va emotsional salohiyati umumta'lim maktablaridagi tengdoshlaridan ancha farqlanadi. Shu bois ular bilan ishlashda umumiy metodlardan tashqari psixologik xususiyatlarga moslashtirilgan pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurati tug'iladi. Ijod maktablariga qabul tanlov asosida amalga oshirilgani sababli bunday o'quvchilar odatda yuqori intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlashga, savol berishga va izlanishga moyil, ijodiy yondashuvga ega, emotsional sezgirlik darajasi yuqori bo'ladi. Ular tengdoshlaridan o'quv motivatsiyasi yuqoriligi bilan ajralib turadi, ya'ni bilim olish jarayonini o'zining ichki ehtiyoji sifatida qabul qiladi.

Adabiy ta'lim jarayonida evristik yondashuv o'quvchini bilimni tayyor shaklda qabul qilishdan ko'ra, uni mustaqil izlanish, savol qo'yish va muammoni hal etish jarayonida kashf qilishga yo'naltiradi. Ushbu diagrammada tajriba-sinov jarayoniga jalb etilgan ijod maktablaridagi adabiyot o'qitishning mavjud holati keltirilgan.

1-rasm



1-rasm. Ijod maktablarida adabiyot o'qitishni evristik yondashuv orqali tashkil etishning mavjud holati

Tahlillardan ayon bo'ldiki, darslarda, asosan, kognitivlikka (38%) va kreativlikka (30%) oid metodlarni qo'llash ustunlik qiladi. Ammo bu ko'rinishning kognitiv yo'nalishdan past bo'lishi ijodiy topshiriqlarni yanada ko'paytirish lozimligini bildiradi. Integrativlikka oid ko'rsatkichlar 23% ni tashkil qilishi adabiy jarayon fanlararo hayotiylik, san'at va tajribalarni uyg'unlashtirish orqali tashkil etilayotganlik darajasini ko'rsatgan. Eng past natija esa evristikaga oid ko'rsatkichga (9%) to'g'ri kelmoqda. Bu holat o'quvchilarda mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, savol-javob orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonlari kam darajada tashkil etilayotganini ko'rsatadi. Shu bois ijod maktablaridagi adabiyot darslarida evristik yondashuvga oid usullarni kengroq joriy etish talab etiladi.

Odatda har bir darslik va qo'llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol-topshiriqlar beriladi. Bu paragrafda ijod maktablarining 8–9-sinf o'quv dasturidagi ayrim mavzularni o'rganish uchun tavsiya sifatida evristik xarakterdagi topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Masalan, A.Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday mushtaraklik borligini tadqiq etish, J.Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan Sh.Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini qiyosiy tadqiq qilish, Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" asaridagi tintuv jarayoni yana qaysi asarlarda uchrashini aniqlash topshiriqlari o'quvchilarni izlanuvchanlik va tadqiqotchilikka o'rgatsa, T.Malikning "Alvido, bolalik" qissasi va I.Sultonning "Shamolli kecha" hikoyasini yozuvchi sifatida o'zgacha yakunini yozish, V.Rasputinning "Fransuz tili saboqlari" hikoyasi nomi va syujetini inobatga olgan holda boshqacha nomlash kabi topshiriqlar o'quvchilarni ijodkorlikka va ijodiy fikrlashga undaydi. Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi, X.Sultonovning "Saodat sohili" qissasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlash, O.Henrining "Yigirma yildan so'ng" hikoyasi qahramoniga savol yo'llash topshiriqlari o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga xizmat qiladi. X.Do'stmuhammadning "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi asosida sahnalashtirilgan ko'rinishlar yaratish va asar qahramoni iztiroblariga mos kuy tanlash kabi topshiriq orqali o'quvchilar adabiyot fani nafaqat so'z san'ati ekanligini, balki san'atning ko'plab turlari bilan aloqadorligini his qiladilar. Bu jihat o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy sifatleri, estetik didi va tanqidiy tafakkuri rivojida ahamiyatlidir.

Yuqoridagi topshiriqlar orqali o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish bilan birga ijodkorlik, obrazli tafakkurni rivojlantirish, tasavvurini kengaytirishga erishiladi. Namunalar shakli va mazmuniga diqqat qilinsa, asarlarning janriy xususiyatlariga ko'ra topshiriqlar deyarli takrorlanmagani va qiziqarli tarzda qo'yilgani uchun ham o'quvchilar bu jarayonda zerikmaydi. Demak, zamonaviy ta'limda o'quvchini bilim bilan qurollantirish bilan birga, uning tafakkurini, tasavvurini, muloqot madaniyatini, ijodkorlik faoliyatini ham rivojlantirish muhim sanaladi.

Ishning ikkinchi bobida **"Ijod maktablari adabiyot darslarida evristik yondashuvdan foydalanish metodikasi"** yoritilgan. Bobning *"Ijod maktabi*

o'quvchilarida ijodiy individuallikni rivojlantirishga doir evristik metod va usullarning o'ziga xosligi" deb nomlangan birinchi paragrafida ijod maktablari o'quvchilarida ijodiy individuallikni rivojlantirishga doir evristik metodlar ahamiyati yoritilgan. Adabiyotshunoslikda individuallik tushunchasi badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari asar syujetida qay darajada hayotiy va haqqoniy aks ettirilganini ko'rsatadigan mezondir. Shuningdek, badiiy asar qahramonining o'ziga xosligi, milliyliigi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega. Har bir yozuvchining o'ziga xos tili va uslubiga oid belgilar ham individuallikni tashkil etadi. Adabiy ta'limda individual yondashuv o'qituvchidan sabr-toqatni, xulq-atvorning murakkab ko'rinishlarini tushunish qobiliyatini talab qiladi. Individual yondashuv pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u barcha o'quvchilarni dastur materialini o'zlashtirish uchun faol mehnatga jalb qiladi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyati, ijodiy qobiliyati va ijodiy individualligi, muayyan sohalarga qiziqishi, intilishi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratib berish maqsadga muvofiq. Sababi aynan adabiyot darslarida o'quvchilarni qahramonlar kechmishi, turmush sharoiti orqali ijtimoiy, madaniy, harbiy, sport, san'at sohaslariga qiziqtirish mumkin. Jumladan, tajribalarimizda A.Sent Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari orqali uchuvchilik va rassomlikka, A.Dodening "So'nggi saboq" va V.Rasputinning "Fransuz tili saboqlari" hikoyalari qahramonlari orqali fidoi o'qituvchi, M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" fojiasi orqali vatanparvar askar, O.Genrining "So'nggi yaproq" hikoyasi orqali mohir rassom, "Yigirma yildan so'ng" hikoyasi misolida adolatli politsiyachi, Sh.Boshbekovning "Temir xotin" asari orqali ixtirochilikka qiziqishlari ortishiga erishish mumkin.

O'quvchilarda ijodiy individuallikni rivojlantirishga doir "Evristik kuzatish", "Ijodiy fantaziya", "Individual loyihalar", "Virtual tashrif", "Ijodiy tasavvur qilish", "Tarixiy fakt va adabiy asar talqinlarini qiyoslash" metodlari bilimlarni mustaqil hamda qiziqarli tarzda o'zlashtirish imkonini beradi.

Evristik yondashuvga asoslangan darslarni tashkil etishda "Tugallanmagan fikrlar...", "Qo'shaloq bashorat qilish", "Loyihaviy topshiriqlar", "Uch bosqichli intervyu", "Zakovat darsi", "Qiziquvchan bilimdon", "Virtual sayohatdan ilhomga, ilhomdan ijodga", "Munozarali-bahsli dars", "Musobaqa darsi", "Sevimli qahramonimga zamonlar osha maktub", "Tavsifnomangiz tayyor", "Empatiya", "Ramzlar orqali tahlil qilamiz" kabi usullardan foydalanish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan, "Virtual sayohatdan ilhomga, ilhomdan ijodga" deb nomlangan topshiriqda A.Qahhor uy-muzeyiga virtual tashrif uyushtiriladi. O'quvchilar tashrif davomida kuzatganlari asosida quyidagi topshiriqni bajaradilar, savollarga javob beradilar:

Yozuvchining uy-muzeyida ko'rganlaringiz asosida sizda katta taassurot qoldirgan burchak tasvirini chizing.

Siz qaysi xonada Abdulla Qahhorni ko'rdingiz?

Adib qaysi asarni yaratyapti?

Mazkur xonadagi qaysi detal sizga adib hayotiga oid ma'lumotni yoki uning asarlarini eslatdi? Bu kabi savollarni berish orqali o'quvchilar adib shaxsiga yaqinlashadilar, ular orqali esa asar va asar qahramonlari ruhiyatini his etadilar.

Masalan, suratdagi qumg'on orqali adibning "Dahshat" hikoyasini yoki yozuvchining ish stolidagi ko'zoynak orqali adib biografiyasiga oid tush bilan bog'liq ma'lumotni keltiradilar.

Ijodiy faoliyatga doir loyiha ishlari sirasiga "O'z spektakllaringizni yarating" topshirig'ini kiritish mumkin. Mazkur topshiriq orqali o'quvchilar o'rgangan mavzulari asosida qisqa spektakllar yoki skitslar (kundalik epizodlarni aks ettiruvchi qisqa dramatik yoki nasriy asar) yozishga undaladi. Bunda o'quvchilarga o'rgangan asarlari bo'yicha qiziqarli mavzularni tanlash yoki o'zlarining original g'oyalarini yaratish, ijodiy tasavvurlaridan kengroq foydalanish maqsadida turli janrlar (komediya, drama, tragediya) taklif qilinadi. Shuningdek, personajlar obrazini yaratish, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni rivojlantirish yoki dialog qurishda ham yordam beriladi.

Globalashuv sharoitida har bir o'quvchi axborot texnologiyalari imkoniyatlarini bilishi, bu borada bilim va dunyoqarashlarini kengaytirishning usul va yo'llarini ham o'zlashtirishlari lozim. Tadqiqotimizda darsliklardagi ijodiy topshiriqlar qatori Interaktiv devor (Padlet), Hikoyalar taxtasi (Story board) yoki Ovoz yozish platformasi (Vocaroo) onlayn ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etildi. **Interaktiv devor (Padlet)**¹³ – bu onlayn ta'lim olish uchun Internet xizmati. U foydalanuvchilarga onlayn tarzda turli xil ma'lumotlarni saqlash, ulashish va birgalikda ishlash imkonini beradi. Bu internet xizmati o'quv jarayonida juda foydali vosita bo'lib, interaktiv darslar, fikr almashish, loyihalar va guruhli faoliyatlar uchun juda qulay. Unda matn, rasm, video, havola, hujjat, ovoqli yozuv va boshqa ko'plab ma'lumotlarni saqlash mumkin. Bu o'quvchilarning ijodiy ishlarini jamlash, muhokama qilish, dasturlarni ko'rish, ijodiy topshiriqlarni yaratish uchun xizmat qiladi.

Hikoyalar taxtasi (Story board)¹⁴ asardagi voqea yoki g'oyaning bosqichma-bosqich tasviriy bayoni, sahna yoki epizodni rasm (kadr) va izohlar orqali tushuntirishda samaralidir. Mazkur platformadan o'qilgan asarlar bo'yicha film, video, animatsiya, reklama ishlab chiqishda foydalansa bo'ladi. Har bir rasm (kadr) bir sahnani bildiradi va unga qisqacha matnli izoh, muhokama, suhbatlar va shaxsiy mulohazalar kiritiladi.

Ovoz yozish platformasi (Vocaroo)¹⁵ audio xabar yozish, saqlash, havola orqali ulashish imkoniyatini beradi. U, asosan, o'qituvchilar, o'quvchilar, bloggerlar uchun juda qulay. Bu kabi onlayn platforma orqali o'qituvchida o'quvchilarga vazifalar yuklash, she'r yoki matnni ifodali o'qish, mavzuga oid maqolalar bilan tanishtirish, baholashda og'zaki izohlash, ijodiy topshiriqlar, ya'ni "Podcast" yoki "Ovoqli hikoya" yaratish kabi yangi formatdagi topshiriqlarni berish imkoniyati mavjud bo'ladi. Muhimi shundaki, yangi raqamli vositalar tufayli ular innovatsion va foydali ta'lim vositasiga aylanadi.

¹³ <https://padlet.com/mahmudauldaseva/adabiy-evristika-ujqpd7mhze1qblz> (Ushbu havola orqali o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlardan namunalarini ko'rish mumkin).

¹⁴ <https://www.storyboardthat.com/class-storyboardboards/e429da11/ezop-masali/edit#> (Ushbu havola orqali o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlardan namunalarini ko'rish mumkin).

¹⁵ <https://vocaroo.com/18O7wnY84nu1> (Ushbu havola orqali o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlardan namunalarini ko'rish mumkin).

Bobning “Evristik yondashuv asosida nasriy va dramatik asarlarni ijodiy o‘zlashtirish imkoniyatlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Najib Mahfuzning “O‘zgaralar uchun yasha” (11-sinf) hikoyasini “Ramzlar ortidagi haqiqat” usuli orqali tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu usulda o‘quvchilar matnda yashirin yoki bilvosita ifodalangan ramziy belgilar (buyum, rang, harakat, holat) kabi elementlarni aniqlaydilar va ular orqali asarning g‘oyasi, muallif pozitsiyasi yoki qahramon kechinmalarini izohlashga harakat qiladilar:

Ramz (buyum, rang, harakat, holat)	Qaysi sahnada uchraydi?	Sizningcha, ushbu ramz nimani anglatadi?
Gulzordagi gullar	Abdurahmon <u>gulzordagi gullarga</u> ancha payt suqlanib termulgach, qo‘shni hovlini ajratib turuvchi <u>tikanli sim to‘sig‘i</u> oldidagi <u>kresloga</u> o‘tirdi.	Gulzorda o‘sayotgan gullar muhabbat ramzi.
Tikanli sim to‘siq	Abdurahmon <u>gulzordagi gullarga</u> ancha payt suqlanib termulgach, qo‘shni hovlini ajratib turuvchi <u>tikanli sim to‘sig‘i</u> oldidagi <u>kresloga</u> o‘tirdi.	Tikanli sim – bu ko‘z ilg‘ar, lekin erishib bo‘lmaydigan orzu, his-tuyg‘ular ramzi.
Kreslo	Abdurahmon <u>gulzordagi gullarga</u> ancha payt suqlanib termulgach, qo‘shni hovlini ajratib turuvchi <u>tikanli sim to‘sig‘i</u> oldidagi <u>kresloga</u> o‘tirdi.	U sim yonidagi kresloga o‘tiradi – demak, u taqdirga qarshilik ko‘rsatmaydi, o‘zining holatini qabul qiladi. Bu o‘zini fido qilish, o‘z hayotini boshqalarga bag‘ishlash ramzidir.

“Ramzlar ortidagi haqiqat” usulining afzalligi shundaki, u o‘quvchiga ramzlar orqali muallif g‘oyasini topishga yordam beradi hamda asar bilan emotsional bog‘liqlikni kuchaytiradi. Shu bois bu usul adabiy tahlilni chuqurlashtiradi va o‘quvchini ijodiy tafakkurga yetaklaydi.

Dramatik asarlarni tahlil qilishda U. Shekspirning “Hamlet” tragediyasini (9-sinf) “Ranglar va ramzlar orqali tragediya tahlili” ijodiy topshirig‘i asosida tahlil qilish; Zulfiya Qurolboy qizining “Yozsiz yil” hikoyasi (11-sinf) matni ustida ishlashda “Emotsional xarita” usulini qo‘llash, “Drama kechasi”, “Taqdimotlar yaratish” kabi usullardan foydalanish mazmuni yoritilgan. Ushbu usullar orqali o‘tilgan asar bo‘yicha tahliliy taqdimotlar turli yo‘sinda taqdim etiladi. Masalan, o‘qish, dramatisatsiya, vizual taqdimot (slyaydlar yordamida, tanlab olingan parcha asosida videorolik yoki diologik matnni rollarga mos ohang yordamida o‘qib, audio ko‘rinishida) tarzida ijodiy namunalar ko‘rsatilishi nazarda tutiladi.

Navbatdagi “Lirik asarlarni o‘rganishda evristik yondashuvdan foydalanish yo‘llari” deb atalgan paragrafda deb atalgan paragrafda she‘riy asarlar tahlilida o‘quvchilar lirik asar mazmunini anglash va his qilish; lirik asarda ifodalangan his-tuyg‘u, lirik qahramonni sezishga doir usullar mazmuni yoritilgan. Bu usullar qaysidir ustuvor jihatlari bilan xilma-xillikni kasb etib, asarni o‘rganishga o‘zgacha yondashuvlarni tavsiya qiladi. Mazkur bobda “Tadrijiy tahlil”, “Sochma bandlar”, “Lirik asar nomlaridan matn yozamiz” usullari, “Zehnli o‘quvchi”, “Sarlavha ustida ishlash” va “Qiyoslash jadvali” topshirig‘idan foydalanish tavsiya etilgan.

“Lirik asar nomlaridan matn yozamiz” usulida o‘quvchilarga ijodi o‘rganilayotgan shoir lirik asarlari nomini ishtirok ettirib, qisqa matn tuzish topshirig‘i beriladi. Ijod maktablaridagi adabiyot darslarida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish maqsadi ham yotadi. Shu sababli ularni ijodga, she‘r yozishga rag‘batlantirish maqsadida yuqoridagi usulni qo‘llash mumkin. Natijada o‘quvchilarda ijodiy matnni tuzishda so‘zlarni tanlab ishlatish orqali she‘r yozishga ishtiyoq paydo bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishga doir o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni”**ga bag‘ishlangan. Uning birinchi paragrafida *“Adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili”* yoritilgan. Mazkur paragrafda ijod maktablari o‘quvchilari uchun tayyorlangan tajriba-sinov materiallari va tajriba darslarini o‘tkazish parametrlari bayon qilingan.

Tajriba-sinov ishlari pedagogik eksperimentning aniqlov, shakllantiruvchi hamda xulosalovchi bosqichlari asosida tashkil etildi. Tadqiqotda tajriba-sinov maydonlari sifatida Toshkent shahar Olmazor tumanidagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi (o‘qituvchilar: M.Iskandarova, N.Ibragimova), Sirdaryo viloyati Guliston shahar Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi (o‘qituvchilar: U.Sultonova, M.Ziyayeva), Xorazm viloyati Xiva shahar Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi ijod maktab (o‘qituvchilar: Z.Atayeva, Sh.Jumaniyozova)lari tanlandi. Tajriba-sinov maydonlari sifatida tanlangan maktablarning 37 nafar adabiyot o‘qituvchisi hamda jami 594 nafar o‘quvchilar qatnashib, shundan 299 nafar o‘quvchilar tajriba guruhida va 295 nafar o‘quvchilar nazorat guruhida qatnashdi.

2022–2023-yillarda o‘tkazilgan aniqlovchi bosqichda ishning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi. Muammoga doir adabiyotlar o‘rganildi, tadqiqot mavzusi nazariy jihatdan asoslandi, maqsad va vazifalari belgilandi. O‘quv eksperimenti uchun materiallar tanlandi, savol-topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va uni aprotatsiya qilish ishlari olib borildi.

2023–2024-yillarda shakllantiruvchi bosqich ishlari o‘tkazildi. Bu jarayonda o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar faoliyati kuzatildi, ular bilan so‘rovlar o‘tkazildi. Har bir bobda yoritilgan nazariy yondashuvlar tajriba-sinov jarayonida amaliy jihatdan sinab ko‘rildi. Ijod maktablarining “Adabiyot”dan o‘quv dasturi, yangi avlod darsliklari mazmuni tahlil qilinib, eksperiment materiallari yaratildi. Adabiy ta’limda evristik yondashuvdan foydalangan holda individual va ijodiy topshiriqlar ishlab chiqildi hamda dars jarayonlarida qo‘llanildi.

Uchinchi 2024–2025-yilda olib borilgan *xulosalovchi bosqichda* respondentlar o‘rtasida qayta so‘rovnomalar tashkil etilib, o‘quv eksperimenti davom ettirildi. O‘quvchilar ijodkorligi va faolligini oshirishga doir topshiriqlar sinovdan o‘tkazildi. Natijalari umumlashtirilib, ishlab chiqilgan metodika amalga tatbiq etildi. Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhining nazorat guruhiga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali o‘sganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi. Xulosalar tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri olib borilganini tasdiqlaydi (1-jadval).

O‘quvchilarda evristik o‘quv jarayonida faollikning shakllanganlik darajasi samaradorligini aniqlash mezon va ko‘rsatkichlari

№	O‘quvchilar bilimini ifodalovchi mezonlar	Tajriba boshida						Tajriba yakunida					
		tajriba guruhi 299 nafar			nazorat guruhi 295 nafar			tajriba guruhi 299 nafar			nazorat guruhi 295 nafar		
		yuqori	o‘rta	past	yuqori	o‘rta	past	yuqori	o‘rta	past	yuqori	o‘rta	past
1.	O‘quvchilarda evristik xarakterdagi materiallarini qabul qilish darajasi	42	158	99	38	153	104	116	161	22	56	158	81
2.	Evristik topshiriqlarni bajarish tezligi	23	105	171	43	161	91	133	158	8	51	153	91
3.	Mustaqil izlanish ko‘nikmasi ning namoyon bo‘lishi	51	139	109	73	132	90	130	152	17	54	159	82
4.	Asar g‘oyasini tushunishi va mantiqiy xulosalar chiqara olishi	75	133	91	51	167	77	125	160	14	49	148	98
5.	Asar qahramonlari ning xarakteri va xatti-harakatlarini tahlil qilishi	65	143	91	41	163	91	123	168	8	57	145	93
6.	Ijodiy tasavvur qilish malakasi	47	165	87	61	143	91	122	164	13	50	164	81
7.	Asar syujeti va undagi ramziylikni tushunishi	42	158	99	38	153	104	139	149	11	57	153	85
8.	Asar haqida mustaqil va kreativ fikr bildira olishi	50	139	110	48	163	84	116	170	13	55	157	83
9.	Ijod qilishga moyilligi	21	107	171	30	168	97	132	149	18	51	163	81
10.	O‘z ijod mahsulini yarata olishi	42	158	99	37	161	97	121	165	13	51	158	86
11.	Kichik o‘quv tadqiqotlarini o‘tkaza olishi	47	165	87	38	153	104	125	164	10	57	153	85
12.	Ijodiy matnlar yarata olishi va esselar yozish uchun mustaqil izlanishi	51	139	109	58	130	107	130	159	10	49	163	83
13.	Hamkorlikda ishlash jarayonida individual faollik ko‘rsatishi	23	105	171	37	168	90	112	166	21	57	165	73
14.	O‘z ijodiy faoliyatini loyihalay olishi va natijalarini asosli taqdimot qila olishi	37	146	116	43	158	94	106	175	18	50	160	85
15.	O‘zi va sinfdoshlari yaratgan ijodiy mahsulotlarni munosib baholay olishi	42	155	102	33	158	104	115	155	29	51	156	88
Jami		658	2115	1712	669	2331	1425	1845	2415	225	795	2355	1275
		44	141	114	45	155	95	123	161	15	53	157	85

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda adabiy ta’limni evristik yondashuv asosida tashkil etishning samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan tajriba boshida va yakunida tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to'plam berilgan bo'lsin. Biri tajriba boshidagi o'qituvchilar bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi tajriba yakunidagi o'qituvchilar bilimining o'rtacha ballari, xuddi shuningdek, tajriba guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, ular bajariladi.

Yuqoridagi jadval natijalari asosida tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilar o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi H_1 gipoteza va unga zid bo'lgan H_0 gipoteza tanlanadi (2-jadval).

2-jadval

O'quvchilarning badiiy asarlar matnini idrok etish samaradorlik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari

O'tkazilgan vaqti	Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari sonda va foizda		
			yuqori	o'rta	past
Tajriba boshida	Tajriba guruhida	299	44 14,7	141 47,2	114 38,1
	Nazorat guruhida	295	45 15,3	155 52,5	95 32,2
Tajriba yakunida	Tajriba guruhida	299	123 41,1	161 53,5	15 5,4
	Nazorat guruhida	295	53 18,0	157 53,2	85 28,8


3-jadval

O'qituvchilarda o'quv faolligining rivojlanlanganlik darajasi samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari


O'tkazilgan vaqti	O'qituvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba boshida	37	4	11	22
Tajriba yakunida	35	15	15	5

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi (2-, 3-, 4-rasmlar):

O'quvchilarda:




2-rasm. Tajriba boshida



3-rasm. Tajriba yakunida

O'qituvchilarda:



4-rasm. O'qituvchilarning ko'rsatkichi

Olingan natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezoni, Student mezoni asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi. Bular quyidagi jadvalda aks etgan. Quyidagi jadvaldagi 2–3-satrlar – o'quvchilarda va 4-satr – o'qituvchilardagi statistik tahlil natijalaridir.

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	Δ_x	Δ_y
1,77	1,83	Tajriba boshida hech qanday samaradorlikka erishilmagan							
2,36	1,89	0,3304	0,4579	1	2	9,21	576,27	0,06	0,08
2,29	1,52	0,4859	0,4696	5	7	4,81	69,43	0,23	0,26

Demak, o'quvchilarda tajriba yakunida tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagiga nisbatan 15 foizga, o'qituvchilarda esa 25,6 foizga oshgan. Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

O'quvchilarda:

Bizga ma'lum $\bar{X}=2,36$; $\bar{Y}=1,89$; $\Delta_x = 0,06$; $\Delta_y = 0,08$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yc6} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{2,36-0,06}{1,89+0,08} = \frac{2,3}{1,97} = 1,17 > 1;$$

$$K_{6d6} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,36 - 0,06) - (1,89 - 0,08) = 2,3 - 1,81 = 0,49 > 0;$$

O'qituvchilarda:

Bizga ma'lum $\bar{X}=2,29$; $\bar{Y}=1,52$; $\Delta_x = 0,23$; $\Delta_y = 0,26$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yc6} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{2,29-0,23}{1,52+0,26} = \frac{2,06}{1,81} = 1,14 > 1;$$

$$K_{6d6} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,29 - 0,23) - (1,52 - 0,26) = 2,06 - 1,26 = 0,8 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, o'qituvchi va o'quvchilarda adabiy ta'limni evristik

yondashuv asosida tashkil etish samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi. Tadqiqot yakuni ko'zda tutilgan muammoning ijobiy yechimini topish yo'lida tashkil etilgan faoliyatning samarali kechganligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari, o'z navbatida, ijod maktablarida adabiy ta'lim samaradorligi oshganligini ko'rsatdi.

XULOSA

1. Evristik o'qitish jarayoni o'quvchilarning individual harakati, mustaqil izlanishiga oid faoliyatini tashkil etgani uchun fan o'qituvchisi ham, muayyan fan doirasidagi darslik ham o'quvchining bilim olishiga ko'maklashuvchi qo'shimcha vosita hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda o'z mashg'ulotlari rejasini tuzadi hamda faoliyatiga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarini belgilaydi. Olam va insoniyatni anglashga intiladi, adabiyotga oid tadqiqot (muallif ijodi, asar qahramonlari tarixi, voqealar bo'lib o'tgan zamon va makon yoki tarixiy faktlarga oid)lar o'tkazadi, she'r, hikoya va esselar yozadi. Natijada shaxsiy bilimlari va tajribalarini boyitib boradilar. Eng asosiysi, o'quvchilar o'qituvchilar taqdim etgan bilim, ma'lumotlar, fanga oid yangiliklar bilan cheklanib qolmaydilar, o'zlari mustaqil izlanadilar.

2. O'quvchilarning o'tilgan asar bo'yicha illyustratsiya chizish, asar qahramonlari portreti yoki tabiat manzarasini o'z tasavvuri orqali ifodalash, kichik loyihalar ustida ishlash, muloqot matnlari, she'rlar, kichik hikoyalar yozishga shart-sharoitlar yaratish samarali natijalarni berdi.

3. Ijodiy faollik va ijodiy individuallik ijodiy jarayonning turli tomonlarini aks ettiruvchi, ammo bir-biriga bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Ijodiy faollik bu jarayon dinamikasi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchi, shaxsning ijoddagi faoliyati va ijod qilishga intilishi hisoblanadi. Ijodiy individuallik esa jarayon natijasi – shaxsning ijodiy ishlaridagi o'ziga xos xususiyatlari. Shaxsning ijodiy faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ijodiy individualligi shunchalik yorqin namoyon bo'ladi.

4. Evristik o'qitishda ta'lim natijasini oldindan aytib bo'lmaydi. Har bir o'quvchidan turli javoblarni olish mumkin. O'quvchi avvalgi bilimini mustahkamlaydi, keyin uni ijodiy o'zlashtirish orqali o'z loyihasida qo'llaydi. O'quvchilar o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va kuzatishlarini o'z ijodiy ishlarida ifodalashni o'rganadilar. Shu bilan birga ular ijodiy ishlarini jamoat tadbirlarida yoki nashrlarda taqdim etishlari asosida o'zlariga ishonch tuyg'ulari ortadi, izlanishga motivatsiya oladi va haqiqiy ijodiy tajribalarni o'zlashtiradilar.

5. "O'z spektakllaringizni yarating", "Virtual tashrif", "Ijodiy fantaziya", "Rol o'ynash va drammatizatsiya", "Ijodiy yozish faoliyati", "Taqdimotlar yaratish", lirik asar mavzusi, motivlariga mos keladigan, umumiy mushtaraklik jihatlarga ega bo'lgan musiqiy yoki tasviriy namunalarni topish kabi evristik yondashuv xarakteriga oid usullar o'quvchilarda rasm, musiqa hamda san'atning boshqa turlari bilan muloqot qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa turli nuqtayi nazarlarni, ijodkorlikni va ifodalilikni rivojlantiradi.

6. O'quvchilar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka moyil bo'ladi. Ularga jarayonda faqat an'anaviy ta'lim asosida yondashilsa, bu sifatlar

soʻnib boradi. Buning oldini olish uchun evristik yondashuvga oid usullardan foydalanish ulardagi izlanish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Jumladan, yozuvchi, shoir, notiq va aktyorlar ishtirokidagi “Mahorat” darslari, “Bir asar tarixi” kabi uchrashuvlarni tashkil etish orqali ularda ijodiy qobiliyat, intellektual salohiyat va kasbiy oʻsishga ragʻbat uygʻonadi.

7. Taʼkidlovchi tajriba bosqichida ijod maktablarining 7–11-sinf oʻquvchilari ishtirok etgan soʻrovnomada yuqorida aytib oʻtilgan muammolar oʻz yechimini topganligini, dars jarayonida oʻquvchilarni ijodkorlikka, ijodiy tafakkur yuritish masalasiga alohida eʼtibor qaratilayotganligi alohida eʼtirof etilgan. Ushbu holat nafaqat tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechganligi, balki tadqiqot ishining pedagogik va ilmiy jihatdan toʻgʻri tashkil etilganligi va samarali boʻlganligidan ham dalolat beradi.

8. Adabiy taʼlimda evristik oʻqitishni amalga oshirish uchun oʻquvchilarda tavakkalchilik layoqati, divergent tafakkurga egalik, fikrlash va harakatlarda qatʼiylik, fikrlash tezligiga erishish, betakror gʻoyalarni ilgari surish, tasvirlarga boy boʻlgan yangi ijod namunalarini yarata olish, rang-baranglikni idrok qilish, keng tasavvur, estetik qadriyatlarni oʻzlashtirish, intuitsiya kabi sifatlarni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratildi.

9. Tajriba-sinov jarayonida qoʻllanilgan evristik xarakterdagi oʻquv bloklari, samarali metodlar va ularni qoʻllash mexanizmlari pedagogik jarayon ilmiy jihatdan asoslangan holda tashkil etilgandagina oʻquvchilarning oʻquv faolligi ortadi, oʻquv materiallarini kognitiv qabul qilish, oʻzlashtirilgan bilimlarning kompetensiyalarga aylanishi, mantiqiy va kreativ fikrlash koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- 1) sinflar kesimida oʻquvchilarni evristik izlanishga undovchi amaliy loyihalarni amalga oshirish;
- 2) adabiyot oʻqituvchilari uchun “Evristik oʻqitish metodlari orqali oʻquvchilarni faollashtirish” nomli metodik qoʻllanma yaratish;
- 3) adabiyot oʻquv dasturlari va darsliklar mazmuniga evristik xarakterdagi oʻquv mavzulari va oʻquv materiallarini singdirish;
- 4) oʻquvchilarda evristik faoliyatni rivojlantirishga doir “Adabiy kashfiyot” platformasini yaratish.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL BASED ON THE SCIENTIFIC
COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 OF THE ALISHER NAVO'I TASHKENT
STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

YULDASHEVA MAXMUDA ALIKULOVNA

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING
LITERARY EDUCATION BASED ON A HEURISTIC APPROACH**

13.00.02 – Theory and methodology of teaching and upbringing (Uzbek literature)

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number V2023.2.PhD/Ped5280.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The abstract of the thesis in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is logged on the web-sites on the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyo.net).

Scientific advisor: **Jabborova Matluba Rustamovna**
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Professor

Official opponents: **Abduvalitov Yergash Buranovich**
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Tuxliyeva Dilfuza Boqijonovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Leading organization: **Namangan State Pedagogical University**

The defense of the dissertation will take place on «____» _____ 2026 at _____ hours at a meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

The dissertation is available on the Information and Resource Center of the Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under the number _____). (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

The dissertation author's abstract is distributed on "____" _____ 2026 (registry record No. _____ dated «____» _____ 2026).

Q.B.Yuldoshev
Chairman of the One-time Scientific Council
at the Scientific Council for the Award of Academic Degrees,
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Q.U.Pardayev
Scientific Secretary of the
Scientific Council for awarding scientific degrees,
Doctor of Philological Sciences, Professor

S.Ashirboyev
Chairman of the One-time scientific seminar
at the Scientific Council for awarding scientific degrees,
Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In the world of education, mechanisms based on differential and integrative approaches oriented towards practical activities are being implemented to develop global thinking in learners and nurture the modern student's personality. Serious attention is paid to creating an ergonomic environment for future students, not only to acquire theoretical knowledge but also to develop the ability to choose appropriate paths in any situation and solve problematic situations using innovative methods. The heuristic approach, with its emotional impact on this adaptability, becomes relevant in directing learners towards developing initiative, fostering the capacity to strive from one piece of knowledge to another, and enhancing creative activity.

It has been established that the heuristic approach in global education systems helps develop skills such as inquisitiveness, creativity, and research aptitude in young people. This approach also aids in adapting to rapidly changing conditions, enhancing intellectual potential, and fostering the development of independent thinkers and active individuals. Priority is being given to implementing heuristic teaching methods that guide students towards independent inquiry. These methods aim to motivate learners to individually assimilate new knowledge, develop cognitive abilities, cultivate creative learning skills, and enhance both core and subject-specific competencies.

In our republic, guiding students to express their thoughts freely, cultivate a reading culture, and develop the ability to articulate "their own answers" while working with literary texts is considered one of the crucial aspects of teaching literature. In organizing literature lessons, an educational process based on learning and discovery helps increase students' learning engagement and enhances their independent thinking skills. This, in turn, ensures their development as well-rounded, competitive individuals. The statement by the President of the Republic of Uzbekistan, Sh. Mirziyoyev, "We will mobilize all the forces and capabilities of our state and society to ensure that our youth grow into individuals who think independently, possess high intellectual and spiritual potential, are not inferior to their peers in any field on a global scale, and are happy"¹⁶, plays a significant role in developing young people's creative imagination, shaping their artistic and aesthetic thinking, and improving their qualities of observation, organization, curiosity, and aspiration for innovation.

This dissertation research, to a certain extent, serves the fulfillment of the tasks stipulated in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-4797 of May 13, 2016 "On the Establishment of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", No. UP-5712 of April 29, 2019 "On Approving the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", No. UP-6108 of November 6, 2020 "On Measures for the Development of Education and Science

¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIX, 2016. – B. 14.

in the New Period of Uzbekistan's Development”, No. UP-60 of January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-3271 of September 13, 2017 “On the Program of Comprehensive Measures for the Development of the System of Publication and Distribution of Book Products, Increasing and Promoting the Culture of Reading”, as well as in other regulatory legal documents adopted in this area.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was conducted in accordance with the priority direction I of the Republic’s science and technology development: “Formation of a system of innovative ideas and methods for their implementation in the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational advancement of an information society and democratic state”.

The extent of study of the problem. The use of heuristic methods in the literary education system of our country has been addressed in the research works of methodologists such as A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova¹⁷. Their studies focus on the connection between teaching and real life, the primacy of spiritual and aesthetic foundations, organizing independent work, developing students' literary analysis skills, teaching independent thinking, and cultivating reading culture. The potential for developing students' critical thinking through a heuristic approach, teaching them to acquire knowledge independently, and fostering qualities characteristic of creative inquiry has been explored by pedagogical scholars including N.S.Mamatov, J.Tursunov, Sh.Hamdami, D.J.Gaipov, I.G‘.Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xalloqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimova and R.Xurramov¹⁸.

¹⁷ Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 333 б.; Ўйлошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 300 б.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). Пед. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 150 б.

¹⁸ Mamatov N.S. Evristik mezonlar asosida informativ belgilar fazosini shakllantirish usullari va algoritmlari. Ped. fan. fals. dok. (PhD). ... diss. – Toshkent, 2010. – 114 b.; Tursunov J. O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda evristik ta’lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 24 – 26; Hamdamov Sh. “Evristik suhbat” usuli / Ma’rifat. – Toshkent, 2020. – № 24. – B. 4; Gaipov D.J. Evristik metod yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faolligini ta’minlash mexanizmlari. Ped. fan. fals. do. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2021. – 40 b.; Abdullayeva I.G‘. Innovatsiya fenomeni va uning evristik asoslari // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2021. – № 9. – B. 40 – 44; Razikova F.K. Evristik ta’lim texnologiyasiga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharti // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022, – B. 8; Xalloqova O.O. Evristik faoliyat texnologiyalaridan foydalanib o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish // “Science and Education” Scientific Journal. 2022, – B. 7; Turaqulova A. Evristik ta’lim texnologiyalari / Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022. – B. 17; Shokarimova K.A. Применение эвристического метода на уроках литературы // Academic Research in Educational Sciences. – Chirchik, 2022. – B. 73; Xurramov P. O‘zaki mashklar ёрдамида бошлангич синф ўқувчилари эвристик фикрлашини

The research of scientists from CIS countries, including V.I.Andreyev, S.S.Bakulevskaya, V.N.Vasilkov, V.N.Voronin, A.A.Derkach, V.V.Ilin, P.F.Kapterev, A.D.Korol, I.M.Rozet, Y.K.Kulyutkin, N.M.Pleskatsevich, A.V.Xutorskoy, Y.F.Trofimov¹⁹, has explored the heuristic method, types of heuristic activities, and priority aspects of heuristic education. The methods of applying the heuristic approach to the educational process, the psychological and pedagogical possibilities of developing heuristic thinking in students, and the challenges of organizing heuristic education were studied in monographic form by M.K.Kogut, Y.D.Ulezko, E.A.Petrosyan and R.N.Naurizbayeva²⁰. Scientists such as M.A.Danilov, A.M.Matyushkin, I.S.Averina, G.D.Chistyakova, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.E.Simanovskiy, A.N.Leontyev, S.I.Shoxor-Trotskiy and N.Sokolov²¹ have established ways to develop students' creative activity, interests, desires, and needs through additional education, club activities, and extracurricular work.

Scientific research has been conducted within the global education system on the issues of guiding students towards creativity through a heuristic approach.

ривожлантиришининг методик асослари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2022. – № 9. – В. 153.

